

MAKTABGACHA TA'LIMDA JISMONIY TARBIYANING AXAMIYATI
ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ
THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATION

Norqo'ziyeva M.A

JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Begimova Muxlisa Rasul qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi kursining asosiy maqsadi bo'lajak kadrlarga Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar bilan qurollantirish mazmuni yoritilgan.

Аннотация: В статье описана основная цель курса «Методика физического воспитания в дошкольном образовании» - вооружить будущих сотрудников комплексными и глубокими профессиональными знаниями о методах физического воспитания в дошкольном образовании.

Annotation: The article describes the main goal of the course "Methods of physical education in preschool education" - to equip future employees with comprehensive and deep professional knowledge about methods of physical education in preschool education.

Kalit so'zlar: Jismoniy, tarbiya, kuchlilik, tetiklik, chaqqonlik, jismoniy sifatlar, sport, sport musabaqa, jismoniy tarbiya sifatlari, metodlar, prinsip, mazmun, sport fizologiyasi, sport psixologiyasi, jismoniy mashqlar

Ключевые слова: физическая подготовка, сила, свежесть, ловкость, физические качества, спорт, спортивные соревнования, качества физического воспитания, методы, принципы, содержание, спортивная физиология, спортивная психология, упражнения.

Key words: physical fitness, strength, freshness, dexterity, physical qualities, sports, sports competitions, the quality of physical education, methods, principles, content, sports physiology, sports psychology, exercises.

Jismoniy tarbiya – tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Maktabgacha ta’lim davrida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi bolalardagi turli ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqon-likni amalga oshirish, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya metodikasi kursining asosiy maqsadi bo‘lajak kadrlarga Maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya metodikasi bo‘yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar beriladi. Kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy tarbiya bo‘yicha bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishni ko‘zda tutadi.

Bu maqsad quyidagi kabi vazifalarni xal etadi: jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va murabbiy ish faoliyatlari bosqichlari bilan, jismoniy tarbiya va sport jarayonida tarbiyalash, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanishni, jismoniy tarbiya musobaqalari va bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish xususiyatlarini shakllanishini o‘rganishdan iborat.

Maktabgacha ta’limda jismoniy tarbiya metodikasi fani bo‘yicha talabalar bilimlari va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar.

Bu kurs bo‘yicha talabalar bilimlari va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar quydagilardan iborat:

- yosh bosqichlarga qarab o‘quv ishlarini rejalashtira olish;
- shu yosh bosqichlariga qarab jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkaza olishi;
- pedagogik nazorat, xronometraj, pulsometriyani dars jarayonida olib borish;
- sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya shakllarini bilish va ularni farqlay olish;

- sport musabaqalarini tashkil qilish va o'tkazish;
- sinfdan yoki guruxdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya shakllarini rejalashtirish;
- jismoniy tarbiya bo'yicha jamoaning tuzilishi, xususiyati, ahamiyatini bilish;
- sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish;
- sport trenirovkasining umumiy xarakteristikasi, vositalari va metodlari;
- sport trenirovkasining prinsiplari;
- sport to'garaklari bo'lajak yosh sportchilarni saralash xaqida aniq tasavvurga ega bo'lishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish kerak.

Jismoniy tarbiya nazariya va metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Bu fanni o'rganish uchun talaba avvalgi kurslarda olingan jismoniy tarbiya bo'yicha olingan to'la xajmda bilimi bo'lishi kerak. Bundan tashqari Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi kursida uchraydigan atamalar hamda jismoniy tarbiya sifatlarini, metodlarni, prinsiplarni, mazmunini, sport fizologiyasi, sport psixologiyasi, jismoniy mashqlar biomexanikasi, sport turlarining nazariyasi, uning metodikalarini bilishlari lozim. Bundan tashqari Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi fani fundamental fan xisoblanadi.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar "Klastrer", "Bumerang", "Yelpig'ich", "Agarda men" metodlaridan, Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi kursida plakatlardan, tarqatma materiallardan, har xil jadvallardan va ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son,70-modda.

2. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'quv qo'llanma). Tulenova X., P.Xo'jayev, M.Xujayeva va X.Meliyev. 1-qism. Tosh. "Iqtisod-moliya" 2012 y.-270 b.

3. SH.sodiqova Maktabgacha pedagogika (darslik) Toshkeht-2012 yil
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin turlarining mazmuni
M Norquziyeva - Maktabgacha ta'lim jurnali, 2021
5. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy barqarorligini ta'minlashning pedagogik-psixologik jihatlari
MA Norkuzieva - Academic research in educational sciences, 2021
6. The role of educational technology in shaping the professional stability of students. M Norquzieva - Theoretical & Applied Science, 2020
7. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning maktab ta'limiga axloqiy tayyorgarligining mezonlari. M Norquziyeva - Maktabgacha ta'lim jurnali, 2021
8. Maxfuza.(2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyachining o'rni. *Maktabgachata'limjurnali*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2729>
9. Maxfuza.(2021). Oilada bolaning kun tartibini to'g'ri tashkil qilish. *Maktabgachata'limjurnali*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2712>